

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MUHAMMAD YUSUF SHE‘RLARI QORAQALPOQCHA TARJIMASINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Yeshboyeva Matluba Baxodir qizi
Nukus davlat pedagogika instituti
1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she‘rlarining qoraqalpoq tiliga qilingan tarjimalari haqida so‘z yuritilgan. Tarjimon va tarjimalarning ahamiyati, naqadar muhim ekanligi haqida ham aytilgan. Qardosh xalqlar adabiyotining rivojlanishida tarjimaning alohida o‘rni mavjudligiga to‘xtalangan. Qilingan tarjimalardagi semantik xususiyatlar: yutuq va kamchiliklar misollar bilan berilgan.

Kalit so‘zlar: tarjima, tarjimon, qardosh xalqlar, yaqin tillardan tarjima, asliyat, so‘zma-so‘z tarjima, ma’no tarjimasi.

Аннотация: В данной статье говорится о переводах стихотворений народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа на каракалпакский язык. Также говорится о важности переводчиков и переводов, насколько они важны. Было подчеркнуто, что в развитии литературы братских народов особое место занимает перевод. Семантические особенности в переводах: достижения и недостатки приведены на примерах.

Ключевые слова: Перевод, переводчик, братские народы, перевод с родственных языков, оригинал, дословный перевод, смысловой перевод.

Annotation: This article talks about the translations of the poems of the People's Poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf into the Karakalpak language. It is also said about the importance of translators and translations, how important they are. It was emphasized that there is a special place of translation in the development of the literature of the sister nations. Semantic features in translations: achievements and shortcomings are given with examples.

Keywords: Translation, translator, brotherly peoples, translation from related languages, originality, literal translation, meaning translation.

Xalqlar orasida faqatgina ijtimoiy-siyosiy aloqalar rivojlanibgina qolmasdan, ular o‘rtasidagi adabiy aloqalar ham kundan-kunga kuchaymoqda. Bu esa xalqlarning, millatlarning hamjihatligini mustahkamlab bormoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, qardosh xalqlar adabiyot vakillari ham kitobxonlar ko‘nglidan chuqur joy olmoqda. Bu shoir-u yozuvchilarning, shu bilan birga, ikki hissa mehnat qilgan tarjimonlarning ham mashaqqatli mehnatlarining samarasi ekanligidan dalolat beradi. Shoir yoki yozuvchi ko‘nglidagi, qalbidagi tuyg‘ularni qog‘ozga tushirar ekan, tarjimon o‘sha tuyg‘ularni anglagan holda, tarjima qilmog‘i lozim. Faqat u shoirning o‘y-xayolidan chetga chiqib keta olmaydi, xuddi o‘sha ijodkor kabi his qilmog‘i, fikrlamog‘i lozim. Tarjimashunoslik tarjimonga katta va mas’uliyatli vazifa yuklaydi. U nafaqat ijodkorning nima deganini anglamog‘i, balkim, ikki tilni ham mukammal darajada bilmog‘i va qo‘llay olmog‘i lozim. “Ikki til xususiyatlarini bilish zamirida asarni har tomonlama o‘rganish, uning lug‘ati va realiylari ustida ishlash tarjimon uchun juda muhim va bu uni ma’lum darajada olim va tadqiqotchi bo‘lishini

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ham taqozo etadi”[6:116], – deydi I.G‘ofurov. Haqiqatan ham, shundagina bu tarjima asarlar kitobxonlarning sevimli kitoblar ro‘yxatidan o‘rin oladi. Bizning o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarida ham anchagina asarlar tarjima qilingan, bu tufayli adabiy aloqalar mustahkamlangan. Shulardan biri el ardog‘idagi, xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, barcha sevib mutola qiladigan shoir Muhammad Yusufdir.

Muhammad Yusufning she‘rlari bir qancha shoirlar tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan. Muhammad Yusuf tavalludining 50 yillik munosabati bilan qoraqalpoq xalqining sevimli shoiri Bazarbay Seytayev tarjimasida “Biz baxitli bolamiz” to‘plami nashrdan chiqdi. Bunda bir qancha she‘rlar tarjima qilingan. Bu ham ikki xalq orasidagi adabiy aloqalarning mustahkamligidan dalolat beradi. Bundan tashqari shoirning 60 yillik tavalludi munosabati bilan “Amudaryo” jurnalining uchinchi sonida bir qancha shoirlarning tarjimalari o‘rin olgan.

Qilingan tarjima asarlarni tahlil qilib ko‘rsak. “Shukir deysen sen qashan” she‘ri qoraqalpoq xalqining sevimli shoirlari bo‘lmish Sharapatdin Ayapov hamda Bazarbay Seytayevlar tomonidan tarjima qilingan. Ikki shoir ikki xil usulda tarjima qilganlar. Asliyatda:

*Ta‘magirni tartqilab,
Nafsi qo‘ymas deydilar.
Nokas o‘zi to‘ysa ham,
Ko‘zi to‘ymas deydilar.[4:166]*
misralari B.Seytayev tarjimasida

*Alimsaqtı tartqılap,
Nápsi qoymas deydiler.
Nákas ózi toysa hám,
Kózi toymas deydiler. [5:3]*

tarzida tarjima qilingan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “ta‘magir” so‘zi “Birovdan o‘lja olishga, ta‘ma qilishga o‘rgangan, ta‘ma qiluvchi” ma‘nosini anglatadi. “Alimsaq” so‘zi esa “Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi”da “Tilenshi, algısh, esabın tawıp ala beretuǵın, alıwdı jaqsı kóretuǵın adam, alımpaz” tarzida berilgan. Bunga ko‘ra tarjimadagi so‘z to‘g‘ri qo‘llanilmagan.

Endi esa Sharapatdin Ayapovning tarjimasini solishtirib ko‘rsak:

*Dámegóydi tartqılap,
Nápsi qoymas deydi eken.
Nákas ózi toysa da
Kózi toymas deydi eken. [1:70]*

Bu misralarda esa ta‘magir so‘zining o‘rniga “dámegóy” so‘zi qo‘llanilgan. Bu esa “Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi”da “bir nárseni alıwǵa umtılwshı, olja

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

kútiwshi, úmit etiwshi, dáme etiwshi, dámeleniwshi” deya izohlangan. Bunga ko‘ra, Sh.Ayapovning tarjimasida to‘g‘ri qo‘llanilgan.

Shoirning “Xavotir” she‘ri ham Keńesbay Karimov va Bazarbay Seytayevlar tomonidan tarjima qilingan. Bularni ham tahlil qilib ko‘rsak. Asliyatda:

*Qo‘rqaman, ertaga men o‘lib ketsam,
Yotar bo‘lsam qumga botib ko‘zlarim,
Ko‘nglimni ko‘chkiday basadi bir g‘am –
Yig‘lashni ham bilmas mening qizlarim... [3:11]*

B.Seytayev tarjimasida:

*Qorqaman kúni erteń ólip ketsem,
Jatar bolsam qumğa batıp júzlerim,
Kewlimdi kóshkidey basadi bir g‘am –
Joqlawdı bilmeydi meniń qizlarım. [5:23]*

Asliyatning ikkinchi misrasida “Yotar qumga botib mening ko‘zlarim” B.Seytayev tarjimasida “júzlerim” tarzida tarjima qilingan. To‘rtinchi misrasida esa “yig‘lashni” so‘zi esa “joqlawdı” so‘zi tarzida tarjima qilingan. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligida bu so‘z “geypara xalıqlardıń ólgen adamdı qaygırıp, qosıq-jır aytıp jılaw salt dástúri” ma’nosini anglatadi. Bunga ko‘ra tarjimon bu so‘zni to‘g‘ri qo‘llagan va bu orqali ma’nosi yana ham kuchaygan. Bu orqali tarjimon o‘z xalqining lingvomadaniy xususiyatlarini ham ko‘rsatib o‘tgan desak yanglishmaymiz. K.Karimov tarjimasida esa:

*Qorqaman, bir kúni men ólip ketsem,
Jatar qumğa batıp meniń kózlerim.
Kóńlimdi kóshkidey basadi bir g‘am,
Jılawdı bilmeydi-aw, meniń qizlarım. [1:68]*

Ikkinchi misrasidagi B.Seytayevdagi kamchilik “kózlerim” tarzida to‘g‘ri tarjima qilingan. To‘rtinchi misrasida esa “jılawdı bilmeydi-aw” ya’ni kuchaytiruv-ta’kid yuklamasi qo‘shilib tarjima qilingan va ma’no kuchaytirilgan. Bu esa she’rdagi ma’noning yana ham ta’sirli bo‘lishini ta’minlab bergan.

Shu she’rning to‘rtinchi bandida esa asliyatda:

*Tildan qolsam ko‘zda qotib yoshlarim,
Ko‘nglimdan boshqa bor axir, ne zarim?*

B. Seytayev tarjimasida bu misralar:

*Tilden qalsam, kózde qatıp jaslarım,
Kewilimnen basqa bardı ne zarım? -*

tarzida tarjima qilingan.

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Bu misralarning ma’nosi: “Ko‘nglimdan boshqa ne zarim bor?” “Zar” so‘zi “boylik” ma’nosini anglatadi. Tarjimadagi “zar” so‘zi esa “Dilgir, mütáj, intiq, zariw, qushtar” ma’nosini bildiradi. Bunga ko‘ra tarjimadagi so‘z noto‘g‘ri qo‘llanilgan. Keñesbay Karimov tarjimasida ham

Tilden qalsam kózde qatıp jaslarım,

Kewilimnen ózge ne aqır; zarım? [1:68] –

tarzida noto‘g‘ri tarjima qilingan. Tarjimada eng muhimi bu ma’noni saqlab qolish.

Shoirning “Mashrab nolasi” she’rini ham B.Seytayev tarjima qilgan. Asliyatda:

Oq ro ‘mol o ‘rab otınday,

Tovlanma menga oltınday

Bola ko ‘rmagan xotınday

Allasi yolg ‘on dunyosan! [2:41]

Tarjimada esa:

Aq oramal orap hasılday,

Tawlanba mag ‘an altınday,

Ókshesi qanamagan qatınday,

Háyyiwi jalğan dúnyasan! [5:10] –

deya tarjima qilingan. Endi tahlil qilsak, asliyatda “otin” so‘zi qo‘llanilgan. Bu so‘z izohli lug‘atda “Eski maktablarda qizlar o‘qituvchisi; Ayollar o‘rtasida diniy marosimlarga boshchilik qiladigan ayol” deya izohlangan. Tarjimada esa “hasil” so‘zi qo‘llanilgan. Bu esa túsindirme so‘zligida “jaqsı, taza, qunlı, bahalı; Jerge egilgen diyqanshılıqtan hám miywe ósimliklerinen alınatúgın dán; Qımbatlı, qádirli” degan ma’nolarini izohlangan. Bunga ko‘ra tarjimada bu so‘z noo‘rin qo‘llanilgan. Uchinchi misrasi “Bola ko‘rmagan xotin” birikmasi o‘rniga qoraqalpoq tilining iborasi bo‘lmish “Ókshesi qanamagan qatın” ni bergan. Bu orqali she’rni so‘zma-so‘z emas, ma’nosini tarjima qilgan. Bu orqali she’rdagi hissiylik yana ham kuchaytirilgan desak yanglishmaymiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarjimonlar qilgan tarjimalari orqali kitobxonlarning ko‘nglidan joy olishga, ikki xalq orasidagi madaniy va ma’rifiy aloqalarni mustahkamlashga harakat qilganlar va buning uddasidan chiqqanlar. Qardosh xalqlar adabiyot vakillari qadim-qadimdan birgalikda adabiy uchrashuvlarda o‘z ijod namunalari bilan bir-birlarini bahramand etganlar. Bugun ularni o‘rganish biz yosh avlodning asosiy vazifalaridan biridir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Amudarya” jurnali., – Nukus: Nukus, 2014.
2. Muhammad Yusuf. Biz baxtli bo‘lamiz., – Toshkent:Nihol, 2008

**“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI
TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

3. Muhammad Yusuf. Oq tulpor,. – Namangan: Namangan, 2003.
4. Muhammad Yusuf. Saylanma,. – Toshkent: Sharq, 2007.
5. Seytayev B. Biz baxitli bolamiz,. – Nukus: Qaraqalpaqstan, 2004.
6. G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi,. – Toshkent:Tafakkur bo‘stoni, 2012.